

Date: 13th December-2025

TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI UMUMIY HOLATI

Tojiboyev Munavvarjon Numonjonovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Farg'ona akademik litseyi tarix fani bosh o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston o'lkasida ta'lim tizimini umumiy jihatlari, statistikalar hamda umumiy holatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: diniy maktablar, boshlang'ich rus maktabi, rus-tuzem maktablari, seminariya, o'g'il erkaklar va qizlar gimnaziyasi, Fevral inqilobi.

O'rta Osiyo chegaralari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, u erlarda dastlabki rus tipidagi diniy maktablar ochila boshlandi. Bunday maktablar dastlab 1860-yili Kazalinsk va Perovskda ochilgan. 1866-yili Toshkentda o'g'il va qizlar uchun aralash dastlabki boshlang'ich rus maktabi ochilgan.

1867-yili Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, boshlang'ich rus maktablari yangidan bosib olingan hududlarda tashkil etila boshlandi. Masalan, 1870-yili Samarqandda, 1874-yili Chimkentda kelajakda tashkil etilgan rus-tuzem maktablari tipidagi maktablar mahalliy aholi bolalari uchun ham tashkil etila boshlandi. 1876-yildan ta'lim tizimini boshqaruvi markaziy idora tashkil etildi. Maktablar uchun o'quv dasturlari mahalliy ma'muriyat tomonidan ishlab chiqilgan.

XIX asrning 70-yillari boshidan boshlab podsho hukumati Turkistonga ko'chirilgan ruslarning farzandlari uchun ta'lim maskanlarini tashkil etishga kirishgan. 1870-yil o'lkada ta'lim tizimini tashkil etish maqsadida generalgubernator K.P. fon Kaufmanning buyrug'i bilan Toshkentda maxsus komissiya ish boshlagan.

1873-yili Kaufman podshoga "Turkiston o'lkasida xalq ta'limini tashkil etish" borasida loyihani taqdim etadi. Loyihada Kaufman mahalliy aholi bolalarini umumiy bilim yurtlarida rus bolalari bilan birga o'qitishni ko'zlagan edi. Mahalliy yoshlarni bunday o'quv yurtlarida o'qitishni tashkil etish uchun o'qituvchilarga ehtiyoj bor edi. Ularni o'qituvchilar seminariyasida tayyorlash mumkin edi. Toshkentda shunday seminariya tashkil etish mo'ljallanadi. Turkistondagi ko'chmanchi aholi savodini chiqarishni tashkil etish maqsadida har bir ovulda uezd maktablarining bo'limlarini tashkil etishga qaror qilinadi. Savodsizlikni tugatish maktablariga o'qituvchilarni to'rt yillik uezd maktablarini bitiruvchilardan olish maqsad qilingan. Bu maqsad uchun uezd maktablarida 20 kishilik internat tashkil etilgan.

Bunday maktablarda diniy bilim faqat xristian bolalariga berilgan. Islom diniy bilimi bolalar uchun asosan hukumat maktablarida berilgan. Bunday maktablarda rus bolalari uchun asosan rus tili va arifmetika (to'rt yillik rus maktablarida bundan tashqari, geografiya, hunarmandchilik bilan bog'liq chizmachilik o'rgatilgan). Mahalliy aholi bolalariga esa rus transkripsiyasi qo'llanilgan ona tilidan bilimlar, rus o'quvchilar uchun mahalliy tilni o'qish



Date: 13th December-2025



majburiy bo'lmagan. 1876-yil yanvardan boshlab Toshkentda bilim yurti bosh inspektori boshchiligidagi Turkiston o'lkasi ta'lim tizimi boshqarmasi tashkil etiladi. 1876/1877-o'quv yilidan boshlab Toshkent va Verniyda o'g'il erkaklar va qizlar gimnaziyasi ochiladi. Toshkentdagi o'qituvchilar seminariyasi esa faqatgina 1879/1880-o'quv yilidan ochilgan.

Mahalliy maktablarga nisbatan munosabatda general-gubernator aralashmaslikni ma'qul ko'radi. 1875-yil hukumat o'lkadagi barcha diniy maktablarni Turkiston ta'lim tizimiga bo'ysundirishni, 1879-yili Xalq ta'limi vazirligi xalq bilim yurtlari inspektorlariga mahalliy maktablarni nazoratga olish haqida ko'rsatma bergan bo'lsa-da, Kaufman mahalliy maktablarga aralashmaslik siyosatida qattiq turadi. Uning fikricha, mahalliy ta'lim tizimiga e'tibor bermaslik, ularni nazorat qilmaslik va moddiy yordamsiz bunday maktablar o'z-o'zidan tarqalib ketadi.

XX asr boshida Turkistonda yashovchi rus tilida so'zlashuvchi aholi bolalari uchun ta'lim tizimi tarmoqlari kengaygan. 1914-yildan Turkiston general-gubernatori Samsonovning taklifi bilan savdo va o'qituvchilar bilim yurtlaridan tashqari barcha Oliy bilim yurtlari o'quv dasturiga mahalliy aholi tilini o'rganish kiritilgan. Chor Rossiyasi davrida o'lka yoshlarini ta'lim-tarbiyasi haqida asosan jadidlar qayg'urganlar. Ular o'z davrida mavjud maktablarni zamon talablaridan orqada ekanligi haqida ta'kidlaganlar. Ularning fikricha, o'sha davrdagi eski maktablarda savod chiqarish va o'qitish ko'p yillarni qamrab olganligi uchun oddiy kishilar o'z farzandlarini maktablarga berish imkoniyati yo'q. Turkistonni umumiy qoloqlikdan chiqarish yo'lidagi eng katta to'siq bo'lgan eskicha o'qitish usulini ta'limning yevropacha o'qitish tartibiga asoslangan yangicha usul bilan almashtirish va busiz ma'rifiy yuksalishga erishish mumkin emasligi masalalari taraqqiyparvarlarning bosh g'oyasi hisoblangan. Shuning uchun ham ta'lim tizimini isloh qilish zarurdir. Masalan, 1914-yili Samarqand shahri bo'yicha mahalliy aholi orasida har yuz nafar boladan uch nafari, rus bolalari orasida esa nafari maktablarga jalb etilgan. Ularning fikricha, savodsizlikning oqibati millat uchun yaxshi emasdi. Bolalarni savodli qilishda birinchi navbatda oilada ayollarning savodini chiqarish muhim hisoblanadi. Chunki, bolaga onaning ta'siri otaga nisbatan ko'proqdir. Shuning uchun turkistonlik xotin-qizlar uchun Evropa usulidagi maktablar ochilishi, ularda muallimlik shahodatnomasi bo'lgan, alohida 1917-yil Fevral inqilobi imperiyaning barcha hududlarida bo'lgani kabi Turkiston o'lkasiga ham erkinlik in'om etgan. Barcha sohalardek ta'lim tizimini ham isloh qilish uchun harakatlar boshlangan. 1917-yil aprel oyida Munavvar qori o'z uyida Turkistonda mavjud barcha turdagi maktablarning o'qituvchilarini to'plab majlis o'tkazgani haqida yozadi. Majlis yakuniga ko'ra ishtirokchilar kishidan iborat alohida komissiya tuzganlar. Ular o'lkada 5 yillik ta'lim tizimi va unda o'tiladigan fanlar va dasturiy rejalarini ishlab chiqqanlar.

1917-yil Fevral inqilobidan keyin o'lkada boshlangan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jarayonida ta'lim tizimi muammolari va islohotlari kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biri edi. Xususan, 1917-yil 9-14-may kunlari Toshkent shaxrida bo'lib o'tgan o'lka o'qituvchilari vakillarining I qurultoyida ta'lim tizimi bilan bog'liq ko'pgina masalalar muhokama qilindi. Qurultoyda "Turkiston o'qituvchilar ittifoqi" tashkil etildi, o'lkadagi

Date: 13th December-2025

rus-tuzem maktablarini tugatish, ularning o'rniga milliy maktablar tashkil etish masalasi muhokama etildi. Chunki rus-tuzem maktablari mahalliy aholi farzandlari savodini chiqarishga qodir emasligi, o'qishlar ona tilida olib borilishi, rus tili esa xorijiy til sifatida o'qitilishi mo'ljallangan.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, maorif sohasida tatar ma'rifatparvar ayollarining faol harakatlari natijasida mahalliy aholi xotin-qizlarining bilim saviyalari ortib, ularning turmush tarzlari keskin o'zgarishiga sabab bo'lgan. Albatta, mahalliy xalqning fan-texnika yangiliklarini egallashi, uni o'zlashtirishi, millat manfaatini himoya qilishi uchun eng avvalo rus va boshqa xorijiy tillarni o'rganish orqali amalga oshirilishini taraqqiyparvarlar juda to'g'ri anglaganlar va ularni o'rganishga bo'lgan sa'y-harakatlarini qayd etish lozim.

Zero, ular mustamlaka sharoitida millat manfaatini himoya qilish, iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun albatta rus tilini o'rganish orqaligina amalga oshirilishini juda yaxshi bilganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаева Ш.А., Зайнитдинова М.А., Халикова Г.И. История педагогики. – Ташкент, 2017.
2. Холбоев С. Миллий университетнинг тарихий илдизлари ва ташкил топиши. – Тошкент. Шарқ, 2003.
3. Рахманов Н. Развитие педагогического образования в Узбекистане. – Ташкент, 1976.
4. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Биринчи китоб. – Тошкент. 2019. – Б. 351.
5. Abduqahhorov Mirzo Ulug'bek Baxtiyor o'g'li. Turkiston ASSR ta'lim tizimini tashkil etishda mahalliy ma'rifatparvarlar o'rnini magistrlik dissertatsiyasi.

